**“Oʻzmilliybank” AJ Boshqaruvi Raisi A.Q.Mirsoatovning**
**2024 yil uchun eng muhim samaradorlik koʻrsatkichlari (KPI) ga erishish boʻyicha**
**“YOʻL XARITASI”**

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| | | **Boshqaruv Raisi (A.Q.Mirsoatov)** | | |
| 1. | Davlat rahbarining Respublika hududlariga qiladigan tashriflariga puxta tayyorgarlik koʻrish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilishi boʻyicha umumiy nazorat oʻrnatish. | 1. Tashriflar davomida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida biriktirilgan hududlarga chiqish.<br>2. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish koʻrsatkichlari bilan tanishish.<br>3. Biriktirilgan hududlarni rivojlantirish boʻyicha berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlanishini nazorat qilish. | 2024 yil davomida | Boshqaruv Raisining oʻrinbosarlari,<br>Bank Ijro apparati,<br>Bosh bankdan hududlarga biriktirilgan mas'ullar,<br>Hududiy Bosh boshqarmalar. |
| 2. | **“Ijro.gov.uz”** ijro intizomi idora-lararo yagona elektron tizimi orqali topshiriq va vazifalarning ijrosini ta'minlash hamda tashkiliy ishlarni muvofiqlashtirish. | 1. Har oyda tegishli departamentlar bilan birgalikda **“Ijro.gov.uz”** tizimida nazoratda turgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash boʻyicha muhokamalar oʻtkazish.<br>2. Topshiriqlar ijrosini ta'minlamagan mas'ullarga nisbatan intizomiy choralar koʻrish. | Doimiy ravishda<br><br>Har oy yakunida | Boshqaruv Raisining oʻrinbosarlari,<br>Bank Ijro apparati,<br>Tegishli departamentlar,<br>Hududiy Bosh boshqarmalar. |
| 3. | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023 yil 20 noyabr' kuni oʻtkazilgan yigʻilishning 38-sonli bayonida berilgan topshiriqqa asosan respublikada xizmatlar sohasida 2,5 mln.ta yangi ish oʻrinlarini yaratishning maqsadli reja koʻrsatkichlarini hududlar va yoʻnalishlar kesimida ishlab chiqish. | 1. Hududlarda xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali yangi ish oʻrinlarini yaratish imkoniyatlarini oʻrganish maqsadida Ishchi guruh tashkil qilgan holda hududlarga xizmat safariga yuborilishini ta'minlash.<br>2. Ishchi guruhi tomonidan hududiy hokimliklar bilan ishlarni tashkil qilgan holda xizmatlar sohasida aholini band qilish boʻyicha hududlar va yoʻnalishlar kesimida maqsadli reja koʻrsatkichlarni ishlab chiqib hududiy hokimliklar tomonidan tasdiqlanishini nazorat qilish.<br>3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga hisobotlar kiritishni nazorat qilish. | 2024 yil yanvar' oyi davomida | Boshqaruv Raisining oʻrinbosarlari,<br>Davlat dasturlarini moliyalashtirish departamenti. |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 4. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 2023 yil 15 noyabrdagi “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-366-sonli Qarori doirasida aholini biznesga jalb qilish choralarini ko‘rish. | 1. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida aholini biznesga jalb qilish choralarini ko‘rish ustidan nazorat o‘rnatish. | 2024 yil davomida | Boshqaruv Raisining o‘rinbosarlari, Kichik va o‘rta biznes departamenti, Kreditlovchi departamentlar. |
| 5. | Yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni tegishli departamentlar tomonidan o‘rnatilgan tartibda ko‘rib chiqilishi bo‘yicha umumiy nazoratni amalga oshirish. | 1. Mas'ul departament va hududiy Bosh boshqarmalar tomonidan Yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqilishini ta'minlash.<br>2. Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi va Markaziy bank tomonidan yuborilgan Yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari ijrosini nazorat qilish.<br>3. Shaxsiy va sayyor qabullarni belgilangan muddatlarda o‘tkazilishini nazorat qilish. | 2024 yil davomida | Boshqaruv Raisining o‘rinbosarlari, Bank Ijro apparati. |
| 6. | O‘zini-o‘zi band qilish istagidagi ijtimoiy soliq to‘lovlarini to‘lagan fuqarolarga biznesga birinchi qadam uchun 5 mln.so‘m miqdoridagi imtiyozli kreditlarni onlayn tarzda bank kartasiga o‘tkazish orqali ajratish. | 1. Yangi turdagi bank kartasi dizaynini tasdiqlash.<br>2. Kredit ajratish shartlari va skoring modelini tasdiqlash.<br>3. Bank ichki me'yoriy xujjatlariga o‘zgartirish kiritish.<br>4. Milliy mobil ilovaga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish. | 2024 yil mart oyi davomida | Boshqaruv Raisining o‘rinbosarlari, Chakana blok boshqaruvi direktori, Chakana biznes departamenti, Axborot texnologiyalari departamenti. |
| 7. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023 yil 3 oktyabrdagi “Obod xonadon - obod ko‘cha - obod mahalla” mezonlarini biriktirilgan hududlarda joriy qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etish. | 1. Bosh bankdan biriktirilgan xodim tomonidan hududlarda aholi muammolarini hal etish bo‘yicha olib borayotgan ishlarni nazorat qilish.<br>2. Hududlarda aholi muammolarini aniqlash bo‘yicha sayyor qabullar o‘tkazish.<br>3. Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma'lumotlarni Respublika shtabiga o‘z muddatlarida taqdim etilishi ustidan nazorat qilish. | 2024 yil yanvar'-mart oylari davomida | Boshqaruv Raisining o‘rinbosarlari, Bank Ijro apparati. |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 8. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi, Bosh vazir va Bosh vazir o‘rinbosarlari tomonidan hududlarga tashriflar davomida “O‘zmilliybank”AJga belgilab berilgan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash choralarini ko‘rish. | 1. Hujjatlar aylanishini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish maqsadida ichki me'yoriy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish ishlarini muvofiqlashtirib borish.<br>2. Bankning tegishli tarkibiy tuzilmalari tomonidan ijrosi ta'minlanishini nazorat qilish. | 2024 yil davomida | Boshqaruv Raisining o‘rinbosarlari,<br>Bank Ijro apparati. |